



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

“AQL MARKAZLARI” SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Ergashov Javokhir Inomjon o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada “aql markazlari” deb nomlangan tashkilotlarning vujudga kelish tarixi, rivojlanishi hamda mamlakat hayotida tutgan roli haqida fikr yuritiladi. Muallif bu maqolada “aql markazlari” ni tahlil qilar ekan avvalo ular haqida xorijda va yurtimizda amalga oshirilgan tadqiqotlarga hamda “aql markazlari”ning qadimgi davrdan boshlab dunyoning turli hududlarida hukmdorlarga strategik tahliliy maslahatlar ishlab chiqishda muhim tashkilotlar ekanligiga ham urg‘u berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Strategiya, “aql markazlari”, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, fuqarolik jamiyati, tahlil, think tank

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ «МОЗГОВЫХ ЦЕНТРОВ»

Эргашов Жавохир Иномжон угли

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В статье рассматриваются история возникновения, этапы развития и роль организаций, называемых «мозговыми центрами», в жизни государства. Автор, анализируя деятельность think tanks, обращается к зарубежным и отечественным исследованиям, а также подчеркивает, что с древнейших времен в различных регионах мира подобные структуры играли важную роль в разработке стратегико-аналитических рекомендаций для правителей.

Ключевые слова: стратегия, «мозговые центры», социально-экономические процессы, гражданское общество, анализ, think tank.

THE HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THINK TANKS

Ergashov Javokhir Inomjon o‘g‘li

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral Researcher

Abstract

The article examines the history of the emergence, development, and role of organizations known as think tanks in the life of a country. In analyzing these institutions, the author refers to both foreign and national studies and emphasizes that from ancient times similar structures in different regions of the world have played an important role in providing strategic and analytical advice to rulers.

Keywords: strategy, think tanks, socio-economic processes, civil society, analysis, think tank.

Bugungi kunda globallashuv, geosiyosiy beqarorlik, raqamli transformatsiya va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sharoitida an‘anaviy boshqaruv mexanizmlarining cheklanganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, “aql markazlari” (think tanks) davlat siyosatini shakllantirishda muhim institutsional komponent sifatida ajralib chiqmoqda. “Aql markazlari” siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va strategik masalalarni ilmiy tahlil qilish orqali qaror

qabul qiluvchilarga, jamoatchilikka va boshqa manfaatdor tomonlarga dalillarga asoslangan tavsiyalar taqdim etuvchi mustaqil yoki yarim mustaqil ekspertlik institutlari hisoblanadi. Ular siyosatni amalga oshiruvchi emas, balki siyosiy jarayonlar uchun ilmiy yo'l xaritalarini ishlab chiqadigan ko'prik institutlar sifatida faoliyat yuritadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — "aql markazlari" tushunchasining tarixiy ildizlari, evolyutsiyasi va institutsional xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, ularning zamonaviy siyosiy boshqaruv tizimidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu mavzu hali yurtimiz ilmiy jamoatchiligi doirasida yangi hisoblansada, ammo jahon miqyosida olib qaraganda, anchagina keng yoyilgan va bugungacha bo'lgan davrda talaygina tadqiqot ishlari olib borilganligini hamda umumjahon hisobotlar tayyorlanishini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Tomas Madvetz o'zining "Aql markazlari - favqulodda tadqiq etiladigan markazlar sifatida", Endryu Rich esa "Think Tanks, public policy, and the politics of expertise", James MakGann "Think tanks and civil societies: Catalysts for ideas and action", Dayan Stounning "Think Tanks: public policy, and governance", Donald Abelson, Stefen Bruks va Xin Hualarning birgalikda yozilgan "Think Tanks, Foreign Policy and Geo-Politics: Pathways to Influence" kabi bir qancha tadqiqot ishlarida "aql markazlari" haqida batafsil fikr yuritilgan. Yurtimizda ham bu borada bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Siyosatshunoslik fanlari nomzodi Turayev Abror Salohiddinovichning bir necha maqolalarida AQSh neokonservativ siyosatida "aql markazlari"ning ta'siri haqida fikr yuritilsa, Tulyakov Eldor Sobirjonovich(PhD) "O'zbekistonda "aql markazlari"ning davlat boshqaruvidagi ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari" PhD dissertatsiyasini yoqlagan.

"Aql markazlari" tushunchasiga berilgan universal ta'rif yo'q. Xususan, Tomas Medvetzning ta'kidlashicha, "Aql markazi" atamasi "aniq chegaralarga ega bo'lmagan, noaniq va mavhum tushuncha bo'lib, uni qat'iy tarzda belgilab bo'lmaydi"[2;-5]. Endryu Rich va Hartvig Pautz ham aniq ta'rif berish qiyinligini tan olgan holda, bunday ta'rif nazariy va amaliy jihatdan zarur ekanligini qayd etadilar.[3;-9] Aynan ta'rifni aniqlashtirish bosqichida olimlar qarashlarining keskin farqlanishi kuzatiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar "Aql markazlari"ni notijorat, mustaqil va davlat siyosatini tadqiq etishga ixtisoslashgan tashkilotlar sifatida ta'riflaydi. Ayrim mualliflar ularning xususiy tashkilotlar ekanligini ham ta'kidlaydi. Boshqalar esa "aql markazlar"ni partiyaviy bo'lmagan va soliq imtiyozlariga ega institutlar sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, bir qator olimlar aynan ushbu mezonlar asosida "aql markazlar"ni aniqlash nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarishini ko'rsatib o'tadilar.

NATIJA

Yuqorida tahlil qilingan turli tadqiqotchilarning fikrlaridan kelib chiqib, "aql markazlari" tushunchasini quyidagicha izohlashni taklif qilamiz: "aql markazlari" jamiyat va davlat hayotiga oid muhim masalalar bo'yicha kuzatishlar, tahlillar olib boruvchi hamda shular asosida turli yechimlar va ularning muqobil variantlarini ishlab chiquvchi mustaqil va nomustaqil tashkilotlar hisoblanadi. Bu kabi tashkilotlar global miqyosda so'nggi 100 yillikda sezilarli darajada ko'paydi. Aleksandr Eserning hisobotlariga ko'ra hozirda ularning umumiy soni 6300 dan ziyod va ularning yillik budjeti tahmiman 10,2 milliard dollarga teng. Bu tushuncha va aynan shunga aloqador tashkilotlar yaqin yillarda ancha ko'payganiga qaramasdan ularning tarixiy ildizlari Qadimgi Yunoniston, Xitoy, Koreya, Rim Imperiyasi hamda Angliya tarixiga borib taqalib u yerlarda davlat kengashlari va muhim strategic yechimlar ishlab chiquvchi tashkilotlar sifatida shakllangan.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Terminologik jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "aql markazlari - think tank" atamasi dastlab XX asr o'rtalarida qo'llanila boshlangan bo'lsa da, bu turdagi institutlar konsepsiyasining ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Aniqroq aytganda, yuqorida keltirilgan vazifalar bilan Qadimgi Yunonistonda muntazam shug'ullanib kelgan guruhlar mavjud

bo‘lgan va bular Boule[11] deb ataladigan bu kengashlar o‘zining funksiyasiga ko‘ra shaharning kundalik ishlarini boshqarish, qonun loyihalarini muhokama qilish va strategik qarorlarni tayyorlash bilan shug‘ullangan. Ularning vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1. Shahar siyosati va qonun loyihalarini tahlil qilish;
2. Iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni kuzatib borish;
3. Qarorlar qabul qilishda hukmdor yoki shahar kengashi uchun ilmiy asos va strategik tavsiyalar taqdim etish.

Shunday qilib, Boule kengashlari nafaqat siyosiy boshqaruvning amaliy jihatlari bilan shug‘ullangan, balki ilmiy va strategik maslahatchi funksiyasini ham bajargan. Vaqtlar o‘tgani sayin Yunoniston shahar-davlatlari Makedoniya bayrog‘i ostida birlashgandan keyin, Boulening ahamiyati ham oshgan. Bunga misol qilib, Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlarini olishimiz mumkin. Bu yurishlar davomida u bir qancha olimlarning siyosiy va strategik maslahatlariga amal qilgan. Misol uchun uning ustoz Aristotel aynan Markaziy Osiyoga yurish qilish orqali qo‘shinning orqa tomonini muhofaza qilish hamda bu yurishda ehtiyotkorlik zarurligini takidlagan va fikrining isboti sifatida Ahamoniylar hukmdori Kirr II ning mag‘lubiyatini ham aytgan. Bundan xulosa shuki, “aql markazlari” qadimdan davlat siyosatida muhim bo‘lgan va aynan u mamlakat taqdirini belgilashda muhim rol o‘ynagan.

Qadimgi Xitoyda imperator o‘z atrofida faoliyat yuritadigan ziyoli xizmatkorlar guruhini yaratgan. Bu tizim nafaqat hukumat idoralarida yuqori lavozimlarda xizmat qiluvchi, balki siyosiy va ma‘muriy qarorlarni shakllantirishda bevosita mas‘ul bo‘lgan ilmiy ekspert guruhlarini sifatida ishlagan. Ular maxsus imtihonlar orqali tanlangan va Konfutsiy nazariyasi asosida tarbiyalangan, shuning uchun ularning vazifasi hukmdor qarorlarini tahlil qilishdan tashqari, ijtimoiy va axloqiy tamoyillarni davlat boshqaruviga tatbiq etishga ham qaratilgan edi.

Bu kabi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi guruhlar qadimgi Koreyada ham mavjud bo‘lgan. Choson davlati davrida, XV asrda Sejong Buyuk tomonidan tashkil etilgan “Olimlar jamiyati” (Jiphyeonjeon)[12] tuzilmasi davlat siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va innovatsiyalarni amalga oshirishga xizmat qilgan. Bu institutning a‘zolari 1. Hukmdor uchun siyosiy va ma‘muriy tavsiyalar ishlab chiqish, 2. Davlat boshqaruvi, huquq, iqtisod va diplomatiya masalalarida ilmiy tahlil yuritish, 3. Madaniy va ilmiy innovatsiyalarni ilgari surish, masalan, Hunminjeongeum — koreys yozuv tizimini yaratishda faol ishtirok etish bilan shug‘ullanishgan.

Rim imperiyasida hukumat va senat atrofida faoliyat yuritgan olimlar va huquqshunoslar ham hukmdorlar uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqqan. Ular o‘z tadqiqotlari orqali quyidagi yo‘nalishlarda tavsiyalar bergan:

1. Qonun loyihalari va sud ishlarini tahlil qilish;
2. Diplomatiya va tashqi siyosat masalalarida muammolarga yechimlar ishlab chiqish;
3. Ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni ilmiy asos bilan boyitish.

Bu tizim hukmdor qarorlarini bilimga asoslangan va tarixiy tajriba bilan boyitilgan holda shakllantirishga xizmat qilgan.

Angliyada esa “witan”[13] kengashi hukmdor oldida strategik maslahat beruvchi organ sifatida ishlagan. Ularning vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga olgan: Qonun loyihalari va davlat siyosatini muhokama qilish, yer almashinuvi va soliq tizimini nazorat qilish, hukmdor qarorlarini shakllantirishda axborot va maslahat bilan yordam berish. Bu kengash ham nafaqat amaliy siyosiy qarorlar, balki ilmiy tahlil va maslahat funksiyasini bajarishi bilan qadimgi ekspert guruhlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatgan. Yuqorida aytilgan tizimlar nafaqat amaliy siyosatni shakllantirish, balki ijtimoiy va madaniy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ular hukmdor qarorlarini ilmiy asos bilan boyitgan, shuningdek davlat boshqaruvi jarayonida axloqiy va falsafiy me‘yorlarni ham joriy qilgan. Bu tizimlar hozirgi “aql markazlar”ning ilk konseptual prototipi sifatida qaraladi hamda ilmiy asoslangan maslahat berish orqali qaror qabul qiluvchining siyosiy va ma‘muriy yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashgan.

Bundan xulosa shuki, garchi bu termin ilmiy doirada foydalanilayotganiga ko‘p vaqt

bo'lmaganligiga qaramay, faoliyat sifatida bir necha ming yil avval paydo bo'lgan. Yangi davrda birinchi mustaqil siyosiy tadqiqot institutlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buyuk Britaniya va AQShda shakllangan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida sovuq urushning tugashi va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvning kuchayish jarayoni sabab bu institutlarning soni va mavqeini keskin oshirdi, natijada bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida minglab "aql markazlari" faoliyat yuritmoqda.

Tushuncha konseptual jihatdan siyosatshunoslik va jamoat boshqaruviga bog'liq nazariyalariga tayangan holda ishlab chiqilgan, ammo siyosiy jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish, strategik qarorlarni shakllantirish uchun ilmiy amaliy kashfiyotlar, tavsiyalar va konseptual modellar ishlab chiqish orqali siyosiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. "Aql markazlari" bu ma'lum bir yo'nalish, siyosiy soha, yokida ijtimoiy-isqisodiy jihatdan mavjud vaziyatni tahlil qilish, baholash va kelajakda muammolarni bartaraf etuvchi aniq yo'nalishlar va tavsiyalar ishlab chiquvchi institusional tashkilot hisoblanadi. Bu kabi tahlil markazlarining asosiy mahsuloti hisobotlar, tahliliy eslatmalar va tavsiyalar, shuningdek, maqolalar ko'rinishida shakllantirilgan g'oyalardir[1;-114]. Ilk "aql markazi" xalqaro munosabatlarga ixtisoslashgan bo'lib, Qirollik Birlashgan Xizmatlar Instituti (bugungi nomi — Mudofaa va Xavfsizlik Tadqiqotlari bo'yicha Qirollik Birlashgan Xizmatlar Instituti) deb nomlangan[10]. U 1831-yilda Vellington gersogi tomonidan harbiy va strategik masalalarni o'rganishga qaratilgan mustaqil professional tashkilot sifatida tashkil etilgan.

XX asr o'rtalarida "Carnegie Endowment for International Peace va Brookings Institution" kabi bir nechta mustaqil siyosiy tadqiqot markazlari vujudga kela boshlagan. Sovuq urush davrida RAND Corporation singari strategik tahlil markazlari paydo bo'ldi. XXI asrda sovuq urush tugashi, globallashuvning kuchayishi va murakkab geosiyosiy muammolar "aql markazlari" soni va ta'sirini keskin oshirdi, natijada ular hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda mustaqil, hukumat bilan hamkor va nodavlat formatlarda faoliyat yuritmoqda.

Hozirda Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqasida butun dunyoda mavjud tahlil markazlarining yarmi joylashgan va ular nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham tahlil markazlari sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa shuni anglatadiki, yuqorida nomlari qayd etilgan mintaqalarda turli geosiyosiy nazariyalar, jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan loyihalar uchun yetarlicha shart-sharoit mavjud[8]. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nega Yevropa va Shimoliy Amerikada bu turdagi tashkilotlar ko'p va o'zi ular nima uchun kerak? Ularning ahamiyati nimada? Bu kabi savollarga quyidagicha javob berishni ma'qul ko'rdim. "Aql markazlari" davlat boshqaruvi tizimining muhim institutsional komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Ular murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, mavjud holatni baholash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognozlashga ixtisoslashgan mustaqil tahliliy tuzilmalar hisoblanadi.

"Aql markazlari"ning asosiy xususiyati — ilmiy tadqiqot qilish va shu asosda siyosiy organlarga maslahat berish va tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu institutlar nafaqat siyosat bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlash bilan cheklanmay, ularning ilmiy natijalari orqali qaror qabul qiluvchilarga samarali yechimlar va strategiyalar taklif qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda[4;21] "aql markazlari" evolyutsiyasini tushuntirishda mustaqillik, jamiyat va siyosat bilan o'zaro aloqalar dinamikasi, markazlar hokimiyatdan mustaqil bo'lishi, siyosatga kirishish mexanizmlari yoritiladi, Ularning rivojlanishi ko'pincha fanlararo sinergetik yondashuvni talab qiladi: siyosatshunoslik, ijtimoiy fanlar va iqtisodiy tadqiqotlar meto-dologiyasini birlashtiradi, bu esa ularning ilmiy tahlil sifati va siyosat ishlab chiqishda samaradorligini oshiradi.

"Aql markazlar"ni majburiy ravishda mustaqil deb belgilash dunyodagi ko'plab, odatda aql markaz sifatida tan olinadigan institutlarni ta'rif doirasidan chiqarib yuboradi. Dayan Stounning fikricha, aql markaz "erkin fikrlovchi" bo'lishi uchun davlat va xususiy manfaatlardan mutlaq mustaqil bo'lishi kerak, degan qarash asosan anglo-amerika intellektual an'anasiga xos

bo‘lib, boshqa mamlakatlar sharoitida har doim ham mos kelavermaydi. Jeyms Allen Smitning “aql markazlar”ni “asl mohiyatan amerikalik rejalashtirish va maslahat berish institutlari” sifatida ta’riflashi ham ushbu fikrni mustahkamlaydi[6;6]

Dunyoning ko‘plab mintaqalarida “aql markazlari” institutsional jihatdan mustaqil emas. Jumladan, Germaniya va Niderlandiyada ular ko‘pincha siyosiy partiyalar bilan yaqin siyosiy va moliyaviy aloqalarga ega. Ayrim mamlakatlarda esa qonunchilik “aql markazlar”ning faoliyati muayyan davlat vazirliklari homiyligi ostida olib borilishini talab qiladi.

Pol Dikson va boshqa tadqiqotchilar fikricha, “aql markazlari” doimiy faoliyat yurituvchi institutlar bo‘lishi sharti bilan, ular mustaqil yoki muayyan tashkilotga bog‘langan bo‘lishi mumkin[7;34] Dayan Stoun “aql markazlari” hukumat tuzilmalari tarkibida faoliyat yuritishi, mustaqil notijorat tashkilot bo‘lishi yoki foyda ko‘ruvchi korporatsiyaga birlashtirilgan holda ishlashi mumkinligini ta’kidlaydi. Hartvig Pautz esa “aql markazlar”ning mustaqilligi nisbiy xarakterga ega, chunki siyosatga ta’sir ko‘rsatish uchun ular to‘liq mustaqil bo‘la olmaydi, degan fikrni ilgari suradi[8;419-435]. U uch turdagi nisbiy mustaqillikni muhim deb hisoblaydi: huquqiy, moliyaviy va ilmiy mustaqillik. Mazkur yondashuvni aniqlashtirar ekanman, haqiqiy mustaqillik faqat quyidagi shartlar mavjud bo‘lgandagina ta’minlanishi mumkin, deb hisoblayman:

1. fuqarolik jamiyati tashkilotlari faoliyatini tan oluvchi va huquqiy jihatdan himoya qiluvchi qonunchilik mavjud bo‘lishi;
2. fuqarolik jamiyati tashkilotlariga ichki va xalqaro manbalardan moliyaviy resurslar jalb etish imkonini beruvchi tartib-taomillar mavjud bo‘lishi;
3. jamiyat tomonidan fuqarolik jamiyati va mustaqil siyosiy tahlilning ijtimoiy ahamiyati e’tirof etilishi;
4. davlat siyosatini tadqiq etuvchi tashkilotlar mustaqil tahlilni qadrlashi hamda ilmiy tadqiqotning asosiy tamoyillariga amal qilishi.

Jamiyat hayotini yanada yaxshilash, siyosiy konsepsiyalar va strategik dasturlar yaratish hamda ularni hayotda tatbiq etishda “aql markazlari”ning roli katta. G‘arb jamoatchiligida bunday institutlarga nisbatan e’tibor kuchli qaratilgan hamda ularning faoliyati izchil ravishda tadqiq etib boriladi. Bunga sabab esa g‘arb jamiyatlari tashkilotlarning ahamiyati siyosiy-ijtimoiy jihatdan muhim ekanligini anglab yetishganidadir. Ushbu institutlarning prototiplari bir necha asrlar oldin ham boshqaruv jarayonida ahamiyatli rol o‘ynaganligini hisobga olsak, yurtimizda mavjud “aql markazlari” faoliyatini yanada yaxshilash va ularga nisbatan e’tiborni kuchaytirishimiz darkor. Zero, mamlakat rivojini belgilab beruvchi muhim qarorlarni ilmiy asosda ishlab chiqish hamda izohlash “aql markazlari”ning eng muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abrar Saloxiddinovich Turayev – s.f.b.f.d. (PhD), dotsent, JDPU. Neokonservativ “aql markazlari”ning prezident kichik j.bush tashqi siyosatiga ta’siri//Tafakkur ziyosi ilmiy-uslubiy jurnal.JDPU tahririy nashriyot bo‘limi//2024-yil. 3-son
2. Tomas Medvetz. Think Tanks as an emergent field//The social science research council. 2018. p-1
3. Andrew Rich. Think Tanks, public policy, and the politics of expertise. 2004. p-9
4. Weaver R. va James McGann. Think tanks and civil societies: Catalysts for ideas and action. New York. Routledge. 2017. P-21
5. Weaver, R. Think Tanks and Civil Societies (1st ed.). Taylor and Francis. Retrieved from <https://www.perlego.com/book/1579832/think-tanks-and-civil-societies-catalysts-for-ideas-and-action-pdf> (Original work published 2017)
6. Jeyms Allen Smit. The idea brokers: Think Tanks and the rise of the new policy elite. 1991. p-6
7. Dayan Stoun. Think Tanks: public policy, and governance. Brookings Institution Press. 2004. p-7

8. Hartvig Pautz. Revisiting the think tank phenomenon// Public Policy and Administration. 2011. Vol. 26, No. 4, pp. 419–43.
9. James G. McGann, with Richard Sabatini, Global Think Tanks: Policy Networks and Governance. New York: Routledge, 2011.
10. Donald Abelson, Stephen Brooks and Xin Hua, eds., Think Tanks, Foreign Policy and Geopolitics: Pathways to Influence. Abingdon, New York, NY Routledge, 2017.
11. The Boule – ancient greek council// What Is the Boule in Ancient Greece?
12. Jiphyeonjeon// Jiphyunjeon - NamuWiki
13. Witan// Anglo-Saxon law | Origins, Principles & Development | Britannica